



BAXSHICHILIK MAKTABLARIDA DO'MBIRA CHOLG'USINI O'QITISH

Xakimov Orifjon Boboramazonovich

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi
orifjon526@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10212064>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-November 2023 yil

Ma'qullandi: 24- November 2023 yil

Nashr qilindi: 28-November 2023 yil

KEY WORDS

*Baxshi, do'mbira, kuy, doston,
terma zarb, nolish, kashish*

ABSTRACT

Baxshichilik – eng qadimiy san'at turlaridan biri sanaladi. Hali yozuvlar paydo bo'lmagan avval bir necha ming yillar ilgari iste'dodlar ichidagi dardlarini mana shu ilhom qanotida avval xirgoyi tarzida, keyin xirgoyini do'mbiraga jo'r etib izhor qilishni kashf etganlar. Ularning ko'ngliga ko'chgan ilhom esa odamlarni maftun aylagan. Ushbu maqolada Baxshichilik maktablarida do'mbira cholg'usini o'rgatish bo'yicha mulohazalar keltirilgan.

Baxshi do'mbirasidan taralayotgan kuy va doston ijrosining sehrini tinglagan borki, bundan o'zgacha zavq tuyadi, o'zga olamga tushib qolgandek bo'ladi. Baxshilar mangulikka da'vo qilishmagan. Baxshilar tilidan to'kiylayotgan bu xazinalarni asrash lozimligini anglagan odamlar, buyuk folklorshunos olimlar yetishib chiqdi. Ular baxshilar tilidan havoga uchgan termalarni dostonlarni qog'ozga tushirib, tarixga muhrlamoqdalar. Ularga misol qilib Hodi Zarifov, Muzayyana Alaviya, Usmon Qoraboev, Malik Murodov, To'ra Mirzaev, Matluba Murodova, Shomirza Turdimov, Bahodir Sarimsoqov, Mamatqul Jo'raev, Jabbor Eshonqulov, O'ktam Hakimov va boshqalarni keltirish mumkin.

Shunday folklorshunoslardan biri sho'rchilik O'ktam Hakimov tomonidan 2019-yilda nashr etilgan "Yuragimning jo'ri bo'lgan do'mbiram" nomli to'plamda Surxon va Qashqadaryo vohasida yashab, ijod qilgan baxshilar hayoti hamda do'mbira cholg'usini yasovchi ustalar antalogiyasi keltirilgan.

Shu o'rinda baxshilarning sevimli cholg'usi bo'lgan do'mbira sozi haqida ushbu kitobda keltirilgan ma'lumotni berib o'tamiz.

Do'mbira o'zbek xalqining noyob musiqiy cholg'usi hisoblanadi. Do'mbira asosan, yong'oq, gilos, zardoli, pista, bodom, tug'dona, olmurut, tut kabi daraxtlardan yasaladi.[2,186]

Do'mbira bir necha qismlarga bo'linadi:

1. Do'mbira chanog'i (kosasi).
2. Do'mbira dastasi.
3. Do'mbira qulog'i.
4. Do'mbira qopqog'i.
5. Do'mbira eshagi.

Daraxtlarning qalin tomonidan 30-32 sm qilib kesib olinib, bir yerga uch oy ko'mib qo'yiladi. So'ngra yerdan chiqarib olib,

do'mbira kosasini tesha yordamida yo'nib olinadi. Shundan keyin dasta qismiga o'tiladi. Yog'ochning ingichka qismidan 55-60 sm kesib olinadi va tesha yordamida dasta shakliga keltiriladi. Dastaning uch qismiga har xil gajak shakllar beriladi. Dastaning bu uchini kosa qismiga turli moslamalar bilan qattiq biriktiriladi. Chanoqning usti qismiga yog'ochni 0,5 sm qalinlikda yo'nib, tekislab, tol yog'ochdan qopqoq yasab, jilka bilan bog'lanadi. Do'mbiraning gajak qismi ikki joyidan teshilib, taqilgan torni tortish uchun ikkita quloq o'rnatiladi. Do'mbiraning ovozi chiqishi uchun qopqoq o'rtasidan eshak qo'yilib, dastaning bo'yin qismidan maxsus ip bilan tortib bog'lanadi. Gajak qismining yon tomonidan teshib, po'pak bog'lab qo'yiladi.

Baxshichilik va shu jumladan dostonchilik san'atining o'ziga xosligi, murakkabligi san'atkor baxshi-shoirlardan mahorat va iste'dod talab qiladi. Baxshilarning ijrochiligi va ijodkorligi bir necha vaqt jarayonida shakllanadi va shuning natijasida faqat o'zlariga xos ijodiy yo'nalish, uslub va xususiyat vujudga keladi. Ustoz-shogirdchilik an'analari orqali ma'lum hudud atrofida vujudga kelgan dostonchilik guruhlari o'ziga xos maktab yaratadi. O'zbekistonda bunday maktab markazlari Narpay, Ko'rg'on, Sherobod, Xorazm, Qamay, Shahrisabz va Janubiy Tojikiston hududlarida aniqlangan. Bu maktablarda shu guruhdagi ijodkorlarning ijrochilik va ijodkorlik faoliyati asrlar davomida shakllanib, baxshilar uchun umumiy tomonlarini, ma'lum dostonchilik qolipini yuzaga keltiradi. Maktablar ijro etish yo'li, uslubi, xususiyati va an'anasi bilan bir-biridan farq qiladi. Bu maktab vakillarining shogirdlari hozirgi paytda ham ijod qilib, har qaysisi shu maktabda shakllangan ijro usuli, uslubi, repertuari va an'alarini davom ettirib kelmoqdalar. Bugungi baxshichilikning o'ziga xos jonli ijodiy jarayonini kuzatsak baxshilarimizning ichki ovozdan, tashqi ovozga, ya'ni qo'shiq ijrochiligiga siljish tamoyilidir.

O'zbek milliy-ana'anaviy cholg'ulari rang-barangligi, turli-tumanligi, sadolanish xususiyatining o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Hozirgi kunda o'zbek milliy cholg'uchiligida qo'llanilayotgan cholg'ular turlarining nihoyatda boyligi biz yashab turgan zaminimizda har bir musiqiy cholg'uga bo'lgan e'tiborni ifodalaydi. Shu bilan bir qatorda, tariximizga, an'ana va urf-odatlarimizga xalqimizning chuqur hurmatini ham bildiradi. O'zbek milliy-musiqiy cholg'ularning tasniflanishicha ularda tovush hosil qilish uslublari asos qilib olinadi. Lekin milliy cholg'ularimizda ijro etish o'rni va ularda ijro etuvchilarning tarkibiga ko'ra boshqacharoq tasniflash ham mumkin.

Musiqiy ijrochilikda qo'llaniladigan aksariyat cholg'ularda ijro etish sozandadan katta uquv, malaka, tajriba va bilimni talab qilgani holda, xalq ichida juda keng tarqalgan va biz yuqorida aytib o'tgan professional malakani talab qilinmaydigan sodda musiqiy cholg'ularimiz ham bor. Mana shu cholg'ularni musiqiy folklor cholg'ulari deb ataymiz. Zero, mazkur musiqiy cholg'ular eng xalqchil, ommabop bo'lishi bilan bir qatorda xalq musiqiy ijodiyotining haqiqiy ruhiyatini, tarovatini ifodalovchi tovushlar sadosini yaratish xususiyatiga ham egadir. Folklor musiqiy ijrochiligining bilmdoni, amaliyotchisi va mazkur janrning haqiqiy fidoyisi Xoliq Xursandovning ta'biricha, musiqiy cholg'ularni quyidagicha tasniflash to'g'ri bo'ladi: Tuyg'u cholg'ulari va kuy cholg'ulari. Tuyg'u cholg'ulari tarkibiga Chanqovuz, sibizg'a, sopol nay, g'ajir nay, qamish nay, doira, nog'ora kabi cholg'ularni kiritishni tavsiya etiladi. Qolgan musiqiy cholg'ular esa kuy cholg'ulari qatoriga kiritilishi lozim. Tuyg'u cholg'ularida ma'lum bir kuy ijro etilmaydi va unda faqat ohang ijro etish mumkin. O'sha ohang ham har bir ijrochining o'zigagina xos bo'lib, uchraydigan ma'lum bir

element-unsur ushbu ohangning nomlanishini belgilaydi. Misol uchun chanqovuzdagi “Biyov-biyov”, “Gijdov-gijdov” kabi. Bundan tashqari tuyg’u cholg’ulari insonni tabiatga yaqinlashtiradi, ijro qanday darajada bo’lishidan qat’iy nazar, ijrochi o’zliginigina ifodalaydi va betakror bo’ladi. Tuyg’u cholg’ularining boshqa cholg’ulardan ustunlik tomoni shundaki, ular hamma uchun ochiq.

Do’mbira cholg’usi hozircha professional cholg’u ijrochiligida qo’llanilmasada xalqimizga tanish musiqa cholg’usidir. Baxshilarning eng yaqin hamrohi, tinglovchi bilan muloqotdagi eng yaqin yordamchisi bo’lgan do’mbira juda qadimiy cholg’ulardan hisoblanadi. Uning zaminimizda yaratilgan eng qadimiy torli cholg’ulardan biri ekanligini tarixiy ma’lumotlar va arxeologik qazilma boyliklardagi tasvirlar ham isbotlaydi. Torlar sadosini tinglovchilarga etkazish xususiyati dastlab shu cholg’uda sinab ko’rilgan bo’lsa ham ajab emas.

Hozirda bizda qo’llanilayotgan do’mbiralar juda kam o’zgarishga uchragan. Dastlabki davrlarda ichakdan, keyinchalik ipakdan eshilgan torlar hozirda plastik iplar bilan almashtirilgan, xolos. Do’mbira cholg’usi hozirda juda keng tarqalgan dutor cholg’usi yaratilishiga sabab bo’lgan, degan taxminlar ham bor. Bundan tashqari qozoq xalqida ham do’mbira cholg’usi eng asosiy musiqiy cholg’ulardan biri hisoblanadi. Qozoq do’mbirasi zamon ta’sirida o’zgartirilib, qovurg’ali kosaxona va bog’lama pardalarga ega bo’lgan cholg’udir.

Do’mbira cholg’usining muhim xususiyatlaridan biri shundaki, qo’shiq ijrochisi usulni doimo sezib turishi uchun aksariyat hollarda talab etiladigan urma cholg’u-doyra ishtirokidan xalos qila oladi. Boshqacha qilib aytganda, do’mbirada kuyning o’zini chalish qatorida usulni ham qo’shib ijro etib kelaverish imkoniyati bor. Do’mbira cholg’usi boshqa folklor cholg’ulariga nisbatan ko’proq o’rgshanilgan va hatto unda ijro etilgan kuylar notalashtirilgan. Musiqashunos olim Fayzulla Karomatovning 1962-yilda nashr etilgan “Do’mbira musiqasi” deb atalgan kitobi to’liq mazkur cholg’uga bag’ishlangan.

Shunday qilib, o’zbek xalq cholg’ularining paydo bo’lishi, takomillashishining boy tarixi bilan bog’liq bilimlar yosh ijrochilarga yakkanavoz, ansambl ijrochiligida ifoda va ijrochilik texnikasi imkoniyati taraqqiyoti qonuniyatlarini ochishga yordam beradi.

Do’mbira zarblarining murakkab turlari. Do’mbirachilar repertuarida murakkab zarblar qo’llaniladigan kuylar ko’p uchraydi. Baxshilar bu zarblarni mukammal bilishlari va har xil temp va dinamikada ijro etishni o’rganishlari lozim.[5,91]

Teskari zarb. O’ng qo’l panjasi bilan do’mbira torlarini pastga va bosh barmoq, so’ng ko’rsatgich barmoq bilan torlarni yuqoriga birin-ketin berish natijasida hosil bo’ladi.

Chimdib chalish-pitsikato. Bu usulda barmoqlar bilan torni chimdish natijasida tovush hosil qilinadi. Chimdib chalish usuli o’ng qo’l barmoqlari bilan ham, chap qo’l barmoqlari bilan ham amalga oshirilishi mumkin. O’ng qo’l barmoqlari torni do’mbira qopqog’i ustidagi qismida chimdiydi. Chap qo’l barmoqlari esa torni dasta ustidagi qismida chimdiydi. O’ng qo’lini barcha barmoqlari chimdib chalish usulida ishtirok etishi mumkin.

Terma zarb. O’ng qo’l ko’rsatgich va bosh barmog’i bilan torlarga pastga yo’naltirib zarb berish so’ng bosh va ko’rsatgich barmoqlarni yuqoriga yo’naltirib ketma-ket zarb berish natijasida hosil bo’ladi.

Rez. Do’mbira ijrochiligida rez usulining xuddi dutordagidek to’rt turi mavjud bo’lib, u qaysi chalish usuli asosida hosil qilinsa, rez nomi shu usul nomi bilan ataladi. Masalan: terma rez, yakka zarb rezi, chertma zarb rezi, chimdim chalish rezi.

Budratma. Ikki yonma – yon tebranishidan hosil qilinadi. U eng qisqa va eng uzun

tebranishdan iborat bo'lishi mumkin.

Nolish. Yarim tongacha bo'lgan o'ziga xos yirik bidratma

Molish. Barmoqni bir tovushdan ikkinchi tovushga oqangdor, ohista silqaltirish usuli.

Kashish. Yarim ton doirasida amalga oshiriladigan usul. Bunday usullardan foydalanib baxshilar yana o'zlaridan yurakdan chiqqan nolalar bilan do'mbira cholg'usini ijro etgan.

Xulosa qilib aytim mumkinki, yurtimizda milliy qadriyatlar hamda an'analarga katta e'tibor berilayotganligi bois, baxshichilik bo'yicha ixtisoslashtirilgan maktablari tashkil etildi. Ushbu maktablarda doston ijrochiligi janrida muhim hisoblangan do'mbira ijrochiligi bo'yicha uslublarni ishlab chiqish davr talabi bo'lib turibdi. Maqola orqali do'mbira ijrochiligining muhim jihatlariga e'tibor qaratishga harakat qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. F.B.Ochildiev "XIX-XX asr boshlarida Janubiy O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy hayot" (Surxon vohasi misolida). Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. Toshkent. 2007.
2. O'.Xakimov "Yuragimning jo'ri bo'lgan do'mbiram", "Akademnashr", 2019.
3. J.Eshonqulov "Folklor ijrochilik san'ati tarixi" fanidan ma'ruzalar matni. Toshkent 2018.
4. "Boysun-bahori" ochiq folklor festivalini "Jahon sivilizatsiyasida boysunning moddiy va ma'naviy madaniyati" mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi ilmiy maqolalar to'plami. "Yangi nashr" Toshkent 2019.
5. S.Qurbonov "Folklor o'qitish metodikasi" Toshkent. 2021-yil

INNOVATIVE
ACADEMY